Аннотация: В данной статье рассмотрены научно-теоретические основы внедрения цифровых технологий в систему корпоративного управления акционерных обществ. Анализируются возможности повышения эффективности корпоративного управления в условиях цифровой трансформации, обеспечения прозрачности, укрепления взаимодействия с акционерами и принятия оперативных стратегических решений. Автор обосновывает приоритетные направления модернизации управленческих механизмов на основе ИКТ, искусственного интеллекта, облачных платформ и больших данных. Также представлены актуальные предложения по формированию цифровой культуры управления в акционерных обществах Узбекистана.

Ключевые слова: корпоративное управление, собственники, цифровые технологии, инвесторы, заинтересованные стороны, решение, искусственный интеллект.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar tarkibida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati, jumladan, ularning institutsional va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, «Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko'paytirish maqsadida kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga yetkazish, kapital harakatini bosqichma-bosqich erkinlashtirish» vazifalari belgilab berilgan [1].

Bundan kelib chiqqan holda, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni joriy etishda qonunchilik-me'yoriy bazani yanada takomillashtirish, davlat ishtirokini bosqichma-bosqich kamaytirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari va raqamli ma'lumotlarni



qayta ishlash vositalari orqali qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtirish, boshqaruv jarayonlarining shaffofligini oshirish, manfaatdor tomonlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni samarali tashkil etish hamda tashkilotning strategik maqsadlariga erishishni ta'minlovchi zamonaviy boshqaruv amaliyotini joriy etish, aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv organlari faoliyatining mustaqilligini va fond bozorlarida erkin harakat qilishini ta'minlash, raqamli platformalar asosida aksiyadorlar kengashi faoliyatini shaffof va bozor tamoyillari asosida qarorlar qabul qilish shaklida tashkil etish, aksiyadorlik jamiyatlarida ijro organlari faoliyati samaradorligini oshirish, kuzatuv kengashlari faoliyati samaradorligini baholashga qaratilgan ilmiy-uslubiy asoslarni ishlab chiqish yo'nalishlarida ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishni tadqiq qilishning ilmiy-nazariy jihatlari ko'plab xorijlik olimlarning tadqiqot yo'nalishlaridan biridir.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan S. Kukura, I. Ansof, O. Kavirshina, V. Mixaylov, I. Xrabrova, N. Trofimova, T. Salyutina, G. Platunina korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borganlar. Mazkur olimlarning ilmiy ishlarida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda uning samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar berilgan. Biroq qayd etilgan ishlarda korporativ boshqaruvda raqamli platformalarni tadqiq etish masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan.

O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni takomillashtirishning umumiy jihatlari Berkinov B. B., Xodiev B. Yu., Xamidulin M. B., Suyunov D. X., Voxidov M. M., Gulyamov S. S., Zaynutdinov Sh. N., Rahimova D. N., Karlibaeva R. X., Rasulov N. M., Ashurov Z. A., Xoshimov A. A., Yaushev R., Elmirezayev S. E., Urinov B. N., Umarxodjayeva M. G., Shermuxamedov A. K., Kayumova M. Sh. va boshqa olimlarning tadqiqotlarida yoritilgan.

Mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarining ko'lamiga qaramay, kimyo sanoati tarmog'idagi aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning institutsional va funksional mexanizmlarini takomillashtirish, ularni tahlil qilish, korporativ boshqaruv tizimini samarali tashkil etish masalalari yetarli darajada o'rganilmagan. Bu esa mavzuning tanlanishiga asosiy sabab bo'lgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash va qiyoslash, faraz va isbotlash, tizimli, iqtisodiy, statistik tahlil hamda ilmiy bilishning boshqa zamonaviy usullari, jumladan, anketalash va omilli tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Texnologik rivojlanish va raqamli iqtisodiyotning tubdan o'sishi shu tariqa kompaniyalar, kapital bozorlari va jahon iqtisodiyoti tuzilmasini o'zgartirdi. Raqamli texnologiyalar zamonaviy kompaniyalarda korporativ boshqaruvni tubdan o'zgartirmoqda. Bugungi kunda sun'iy intellekt (AI), blokcheyn, katta ma'lumotlar tahlili (Big Data), narsalar interneti (IoT) va bulutli hisoblash kabi texnologiyalar kompaniyalarning boshqaruv jarayonlariga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Bu texnologiyalar korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish, shaffoflikni ta'minlash va xavflarni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

AI texnologiyalari korporativ boshqaruvda qaror qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish va optimallashtirishda keng qo'llanilmoqda. AI asosidagi tahlil vositalari orqali kompaniyalar katta hajmdagi ma'lumotlarni tez va aniq tahlil qilib, strategik qarorlar qabul qilishda foydalanmoqda. Masalan, Ponick va Wiczorek o'z tadqiqotlarida AI texnologiyalarining korporativ boshqaruv, xavf va muvofiqlik (GRC) sohalaridagi potensialini o'rganib chiqib, Aning GRC jarayonlarini samarali boshqarishdagi ahamiyatini ta'kidlaganlar [1].

Blokcheyn texnologiyasi korporativ boshqaruvda shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu texnologiya orqali kompaniyalar o'z operatsiyalarini aniq va o'zgarimas tarzda qayd etish imkoniyatiga ega. Xorijlik tadqiqotchi Ivaninskiy o'z maqolasida blokcheyn texnologiyasining korporativ boshqaruvdagi agent-prinsipal muammolarini hal etishdagi imkoniyatlarini tahlil qilgan [2].

Katta ma'lumotlar tahlili kompaniyalarga o'z faoliyatlari haqidagi ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish va strategik qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Zhou va Liu o'z tadqiqotlarida katta ma'lumotlar tahlili orqali kompaniyalar boshqaruv jarayonlarini qanday samarali tashkil etishi mumkinligini ko'rsatganlar [3].

Narsalar interneti bozori, ya'ni IoT texnologiyalari orqali kompaniyalar o'z uskunalarini va jarayonlarini real vaqt rejimida kuzatish va boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu texnologiyalar korporativ boshqaruvda operatsiyalarning samaradorligini oshirish va xavflarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega [4].



Bulutli hisoblash texnologiyalari kompaniyalarga ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlashda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Bu texnologiyalar orqali kompaniyalar o'z ma'lumotlarini xavfsiz va samarali boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar [5].

Raqamli texnologiyalarni korporativ boshqaruvga joriy etishda kompaniyalar bir qator muammolarga duch kelmoqda. Bu muammolarni hal etish uchun quyidagi yechimlar taklif etiladi:

Ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlash. Raqamli texnologiyalarni joriy etishda ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Kompaniyalar kiberxavfsizlik strategiyalarini ishlab chiqishlari va ularni amalga oshirishlari zarur.

Xodimlarning malakasi va bilimlarini doimiy oshirish. Raqamli texnologiyalarni samarali joriy etish uchun xodimlarning malakasi va bilimlari muhim ahamiyatga ega. Kompaniyalar o'z xodimlarini doimiy ravishda o'qitish va rivojlantirishlari kerak.

Tashkilot madaniyati va o'zgarishlarga tayyorlik. Raqamli texnologiyalarni joriy etishda tashkilot madaniyati va o'zgarishlarga tayyorlik muhim rol o'ynaydi. Kompaniyalar o'z madaniyatini raqamli transformatsiyaga moslashtirishga intilishlari zarur [6].

Tartibga solish organlari tomonidan qo'llaniladigan texnologiyalarning birinchi turi qimmatli qog'ozlar va moliya bozorlariga oid SupTech texnologiyalaridir. SupTech (Supervisory Technology) — bu moliyaviy nazorat va kuzatuv organlari (regulyatorlar) faoliyatini raqamlashtirish va avtomatlashtirishga xizmat qiluvchi raqamli texnologiyalar majmuasidir. Uning asosiy maqsadi — moliyaviy institutlarni nazorat qilish jarayonlarini samarali, tezkor va shaffof tarzda amalga oshirishdan iborat.

OECDning tahliliy hisobotida SupTech texnologiyalari G20/OECD korporativ boshqaruv prinsiplarini amalga oshirishda muhim vosita sifatida ta'kidlangan. Ular orqali nazorat organlari ma'lumotlarni tez va samarali tahlil qilib, xatarlarni oldindan aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladilar [7].

FSB hisobotida SupTech texnologiyalari nazorat organlariga real vaqt rejimida xatarlarni baholash, nazorat qilish va siyosat yuritishda yordam berishi qayd etilgan. Ushbu texnologiyalar orqali nazorat jarayonlarini avtomatlashtirish hamda ma'lumotlar sifatini oshirish mumkin [8].

BIS tahlillarida SupTech vositalari yordamida kredit, bozor, likvidlik va operatsion xatarlarni baholash, shuningdek, kapital yetariligi va boshqaruv samaradorligini ta'minlash imkoniyati mavjudligi ko'rsatilgan [9].

SupTech texnologiyalari korporativ boshqaruvda shaffoflikni ta'minlash, xatarlarni oldindan aniqlash va nazorat jarayonlarini samarali amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ularning qo'llanilishi orqali korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash mumkin [10].

Shunday qilib, hajm va chastotaning keskin ortishi bilan strukturalangan hamda strukturalanmagan ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va tahlil qilish imkonini beruvchi texnologik arxitekturalarga, shuningdek, bunday ma'lumotlarni vizualizatsiya qilishga bo'lgan ehtiyoj ham ortib bormoqda.

Katta hajmli ma'lumotlar o'zining hajmi, xilma-xilligi, tezligi va mavjudligi kabi xarakterli xususiyatlari bilan kompaniyalarga ularni boshqarish bo'yicha murakkab vazifalarni yuzaga keltirmoqda. Bu esa murakkab analitikani ta'minlovchi ilg'or ishlov berish texnologiyalariga e'tibor qaratilishini taqozo etmoqda.

SupTech yechimlari texnologik innovatsiyalar bilan parallel tarzda rivojlanib bormoqda. Natijada SupTech texnologiyalari turli avlodlarga ajralgan holda tavsiflovchi, diagnostik, prediktiv va buyuruvchi konsepsiyalarda qaralmoqda.

SupTech toifasidagi yechimlar ko'plab mamlakatlarda, turli yurisdiksiyalarda faol joriy etilmoqda. Masalan, axborotni oshkor qilish amaliyotiga kelsak, 2017-yildan boshlab Malayziya Qimmatli qog'ozlar komissiyasi korporativ boshqaruv kodeksining standart andozasi asosida kompaniyalardan hisobotlarni qabul qiladi. Keyinchalik ushbu hisobotlar AI tizimi tomonidan muvofiqlikni baholash uchun tahlil qilinadi.

Bundan tashqari, Avstraliya Qimmatli qog'ozlar va investitsiyalar komissiyasi birlamchi va ikkilamchi savdolarni kuzatish uchun real vaqt rejimida ishlaydigan maxsus platformani ishlab chiqqan. Bu tizim Avstraliya aksiyalari va hosilaviy moliyaviy instrumentlar bozorlaridagi harakatlarni kuzatib, bozor anomaliyalarini aniqlash va ishtirokchilarning noqonuniy xatti-harakatlarini avtomatik ogohlantirish imkonini beradi.

Jahon amaliyotida turli xildagi raqamli boshqaruv platformalari mavjud bo'lib, ular har xil hajmdagi va sohadagi tashkilotlar ehtiyojlariga mos tarzda ishlab chiqilgan. Ularning asosiy vazifalari — hujjatlar aylanmasini yuritish, elektron ovoz berish, muvofiqlik monitoringi, kun tartibini shakllantirish, xavfsiz fayl almashinuvi, yig'ilishlar protokollarini yuritish va boshqa kengashga oid faoliyatlarni avtomatlashtirishdan iborat.

Yirik kompaniyalar uchun ishlab chiqilgan ilg'or platformalardan biri — Diligent Boards bo'lib, u dunyo bo'yicha 25 000 dan ortiq tashkilotda qo'llaniladi. U xavfsiz hujjat almashinuvi, elektron ovoz berish, xavf va muvofiqlik monitoringi kabi funksiyalarga ega. Biroq, uning yuqori narxi kichik tashkilotlar uchun jiddiy to'siq bo'lishi mumkin.


Shuningdek, Nasdaq Boardvantage ham korporativ boshqaruvni raqamlashtirishda yetakchi platformalardan biri hisoblanadi. U AES 256-bitli shifrlash, ISO 27001 sertifikati, ikki bosqichli autentifikatsiya (2FA), Zoom va Teams bilan integratsiya, hamda AI asosidagi hisobotlar kabi imkoniyatlarga ega. Platforma 24/7 texnik yordam

xizmatini ham taklif qiladi. Biroq, ushbu platformaning ayrim kamchiliklari sifatida yuqori narx, Outlook kalendari bilan integratsiyaning cheklanganligi va ayrim brauzerlarda sekin ishlashi qayd etilgan.

Admincontrol platformasi esa xavfsizlik bo'yicha yuqori standartlarga ega bo'lib, GDPR va ISO 27001 sertifikatlariga ega. U elektron imzo, xavfsiz fayl almashuvi va kengash faoliyatini avtomatlashtirish imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Biroq, Zoom va Teams kabi videokonferensiya platformalari bilan integratsiyasi cheklangan, shuningdek, mobil ilovalarda funktsionallik yetarli darajada to'liq emas.

BoardEffect esa ta'lim muassasalari va notijorat tashkilotlar uchun mos platforma sifatida tanilgan. U kun tartibini tayyorlash, hisobotlarni yuborish va muvofiqlikni nazorat qilish imkoniyatlarini taqdim etadi. Biroq, bu platforma sanoat va ishlab chiqarish sohalari uchun yetarli darajada moslashtirilmagan.

Board Intelligence platformasi esa intellektual kun tartibini shakllantirish va qarorlarni tahlil qilish imkoniyatlarini taqdim etsa-da, texnik va sanoat yo'nalishlarida foydalanish uchun kamroq moslashganligi sababli tanqid qilinadi (1-rasm).



1-rasm. Kimyo sanoati korxonalarida raqamli platformalaridan foydalanish mexanizmi

Korporativ boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirishda platformani joriy etish jarayoni samarali va tizimli tarzda amalga oshirilishi lozim. Bu jarayon, eng avvalo, korxonaning mavjud boshqaruv tizimini tahlil qilishdan boshlanishi zarur. Jarayonlardagi kamchiliklar, qog'ozbozlik, kechikishlar yoki ma'lumotlar oqimining samarasizligi kabi muammolar aniqlanib, raqamli platforma orqali avtomatlashtirish mumkin bo'lgan sohalar belgilab olinadi.

Keyingi bosqichda, ushbu ehtiyojlar asosida korxonaga faoliyatiga mos raqamli platformani tanlash lozim. Tanlovda platformaning funktsional imkoniyatlari, xavfsizlik darajasi, integratsiya imkoniyatlari, mijozlarni qo'llab-quvvatlash xizmati hamda narx siyosati kabi muhim jihatlarga e'tiborga olinadi (1-jadval).

1-jadval. Korporativ boshqaruv tizimida foydalaniladigan raqamli platformalarning ustunliklari va kamchiliklari

No	Platforma nomi	Ustunliklari	Kamchiliklari
1	Diligent Boards	- 25,000+ tashkilotlarda qo'llaniladi- Xavfsiz hujjat almashuvi- Elektron ovoz berish- Xavf va muvofiqlik monitoringi	- Qimmat narx siyosati- Kichik tashkilotlar uchun og'irlik qilishi mumkin
2	BoardEffect	- NNTlar va ta'lim muassasalari uchun mos- Kun tartibi tayyorlash- Hisobotlar yuborish- Muvofiqlik nazorati	- Ishlab chiqarish korxonalarida uchun funktsional cheklangan- Kengash faoliyatiga moslashuv darajasi past
3	OnBoard	- Intuitiv interfeys- Interaktiv kun tartibi- Elektron ovoz berish- Mobil ilovalar	- Kengash faoliyatiga moslashuv darajasi cheklangan- Xavf va muvofiqlik funktsiyalari cheklangan



4	Nasdaq Boardvantage	- Hujjatlarni xavfsiz boshqarish- Elektron ovoz berish va tasdiqlar- AI asosidagi hisobotlar- Zoom va Teams integratsiyasi- Xavfsizlik: AES 256-bit shifrlash, 2FA, ISO 27001 sertifikati- Mobil ilovalar- 24/7 mijozlarni qo'llab-quvvatlash	- Qimmat narx siyosati- Outlook kalendar integratsiyasi cheklangan- Ayrim brauzerlarda sekin ishlash mumkin- Ko'p kompaniyalarda foydalanganda qayta login talab etiladi
5	Admincontrol	- GDPR va ISO27001 sertifikatlari- Elektron imzo va tasdiq tizimi- Xavfsiz fayl almashinuvi- Yevropa bozorida keng tarqalgan	- Zoom/Teams integratsiyasi cheklangan- Mobil ilovalarda funksional cheklangan
6	Board Intelligence	- Intellectual kun tartiblari- Qarorlar sifati bo'yicha tahlil- Yozma hisobotlar sifatiga e'tibor	- Ishlab chiqarish va texnik sohalar uchun moslashuv darajasi past- Xavf va muvofiqlik funksiyalari cheklangan
7	Govenda	- Yig'ilish boshqaruvi- Fayllar bilan xavfsiz ishlash- Foydalanuvchi huquqlarini aniq taqsimlash- Masofadan ovoz berish	- Xavf va muvofiqlik funksiyalari cheklangan- Kengash faoliyatiga moslashuv darajasi past
8	Azeus Convene	- Interaktiv kun tartibi- Elektron imzolar va muvofiqlik auditi- Ma'lumotlar shifrlash- Off-line rejimda ishlash imkoni	- Kengash faoliyatiga moslashuv darajasi cheklangan- Ko'p funksiyalar uchun qo'shimcha to'lov talab etilishi mumkin
9	iBabs	- Kengash a'zolariga qulay kun tartibi- Qarorlarni qo'llab-quvvatlash vositalari- Muvofiqlik va auditor nazorati jurnallari- Elektron imzo va xavfsizlik tizimlari	- Zoom/Teams integratsiyasi cheklangan- Xavf va muvofiqlik funksiyalari cheklangan
10	BoardPaq	- Kichik tashkilotlar uchun oddiy boshqaruv panellari- Onlayn/offlayn kun tartiblari- Fayl yuklash va arxivlash imkoniyatlari- Qarorlarni tez tasdiqlash	- Xavf va muvofiqlik funksiyalari cheklangan- Kengash faoliyatiga moslashuv darajasi past

Tanlangan platforma dastlab kichik bir guruh doirasida sinov tariqasida joriy etiladi, ya'ni pilot loyiha amalga oshiriladi. Bu bosqichda platformaning qanday ishlayotgani, xodimlar tomonidan qanday qabul qilinayotgani, mavjud texnik muammolar va samaradorlik darajasi baholanadi. Agar sinov natijalari ijobiy bo'lsa, platforma to'liq miqyosda joriy etiladi. Shu bilan birga, xodimlar platformadan samarali foydalanishlari uchun maxsus o'quv kurslarini tashkil etish muhimdir. Har bir bo'lim va rahbariyat vakillari raqamli platformaning imkoniyatlaridan to'liq foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi, joriy etilgan tizimning muvaffaqiyatini belgilaydi.

Platforma joriy etilgach, uning foydalanish samaradorligini muntazam baholab borish zarur. Baholash natijalariga ko'ra, zarurat tug'ilganda o'zgartirishlar, funksional kengaytirishlar yoki yangilanishlar kiritilishi mumkin. Asosiy maqsad — korporativ boshqaruv jarayonlarini uzluksiz takomillashtirish va korxonaning raqobatbardoshligini ta'minlashdir.

Kimyo sanoatidagi korxonalar uchun esa xavfsizlik, muvofiqlik, hujjatlar maxfiyligi va regulyator talablarga rioya etish kabi omillar ustuvor ahamiyatga ega. Shu bois, ushbu sohaga xos talab va standartlarga javob bera oladigan platforma sifatida Nasdaq Boardvantage ni tanlash maqsadga muvofiqdir. Mazkur platforma kimyo sanoatiga mos yuqori xavfsizlik darajasiga ega funksional yechimlarni taklif etadi. Unda AES 256-bitli shifrlash, ikki bosqichli autentifikatsiya va ISO 27001 xavfsizlik sertifikatlari mavjud bo'lib, hujjatlarni ishonchli saqlash, ularning versiyalarini nazorat qilish va elektron imzolarni joriy etish imkoniyatini beradi.

Muvofiqlikni ta'minlash uchun platformada elektron ovoz berish, tasdiqlash mexanizmlari, xavf monitoringi kabi funksiyalar mavjud. Shuningdek, u Zoom va Microsoft Teams bilan integratsiyalashgan bo'lib, masofaviy yig'ilishlarni samarali tashkil etish imkonini yaratadi. Mobil ilovalar orqali istalgan joydan kirish imkoni mavjud bo'lib, 24 soatlik texnik yordam xizmati korxonaning barcha bo'linmalarida ish jarayonini uzluksiz davom ettirishga yordam beradi. Ushbu xususiyatlar Nasdaq Boardvantage platformasini aynan kimyo sanoatida faoliyat yurituvchi korxonalar uchun ideal yechimga aylantiradi.

Raqamli korporativ boshqaruv platformalari — korporativ shaffoflikni oshirish, qarorlar qabul qilishni tezlashtirish va xavfsizlikni ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Kichik biznes subyektlari uchun iBabs va BoardPaq kabi qulay platformalar tavsiya etiladi. O'rta korxonalar uchun Admincontrol yoki Azeus Convene, yirik va strategik tarmoqlar uchun esa Nasdaq Boardvantage va Diligent platformalari mos keladi. Korxonaning sohasi, mavjud resurslari va texnik infratuzilmasiga qarab, to'g'ri tanlangan platforma korporativ boshqaruvda raqamlashtirish orqali yaqqol ijobiy natijalarga erishishni ta'minlaydi.

Korporativ o'zaro munosabatlarni samarali tashkil etish aksiyadorlik jamiyatlarining strategik ahamiyatga molik ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim. Masalan, «O'z kimyosanoat» AJ o'ziga xos institutsional



matritsaga ega bo'lganidek, har bir aksiyadorlik jamiyatida ham korporativ munosabatlar ishtirokchilari o'rtasidagi aloqalarni tartibga soluvchi o'ziga xos institutsional matritsa mavjud bo'lishi talab etiladi. Bunday matritsa o'zaro munosabatlarning tuzilishi, qoidalari va cheklovlarini belgilovchi institutlarga asoslanadi.

Institutsional o'zaro munosabatlarning asosiy maqsadi — korporativ boshqaruv organlari bilan boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasidagi aloqalarning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi boshqaruv va nazorat mexanizmlarini shakllantirishdan iborat. Boshqaruv institutlarini yagona kompleksda o'rganish orqali ularning ma'lum turdagi institutsional matritsaga nisbatan ichki birligi va o'zaro bog'liqligini aniqlash mumkin.

O'zbekistondagi korporativ boshqaruv tuzilmalarida, asosan, ikki turdagi institut mavjud: normativ institutlar va tashkiliy institutlar. Ularning birgalikdagi faoliyati aksiyadorlik jamiyatlarining institutsional asoslari barqarorligini ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Korporativ boshqaruv sohasida o'zaro munosabatlar tizimida manfaatlar muvozanatiga erishish bilan bog'liq ilmiy-uslubiy va amaliy muammolarni hal etish dolzarb masala hisoblanadi. Shu sababli bozor ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi me'yorlar tizimi asosida biznes yuritishning zamonaviy shakllarini joriy etishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Institutsional iqtisodiyot doirasida korporativ boshqaruv va nazorat tizimlarini shakllantirish jarayoni o'zaro munosabatlarni oqilona tashkil etishga yo'naltirilgan yangi yondashuvlarni ishlab chiqishni talab etadi. Korporativ boshqaruv tizimi ishtirokchilar o'rtasida resurslarni taqsimlash va nazorat qilishga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar, institutlar ta'siri hamda ularning talablarini tartibga soluvchi mexanizmlar tizimi sifatida shakllanishi lozim.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, korporativ boshqaruv tizimida o'zaro munosabatlarni boshqarish nazariyasi va amaliyotida mavjud vositalarni tizimlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ munosabatlaridagi manfaatdor tomonlar quyidagi subyektlarni o'z ichiga oladi: davlat va mahalliy hokimiyat organlari, jamoat tashkilotlari, aksiyadorlar, investorlar, menejerlar, xodimlar, biznes hamkorlar, iste'molchilar hamda ommaviy axborot vositalari.

O'zaro munosabatlarni samarali tashkil etishda har bir manfaatdor tomonning o'rnini hisobga olish zarur. Muhimi, ularning soni yoki tarkibi emas, balki aksiyadorlik jamiyatiga ko'rsatayotgan ta'siri nuqtayi nazaridan tahlil etilishi kerak. Masalan, O'zbekiston sharoitida kimyo sanoatiga oid korxonalarining asosiy iste'molchilari qishloq xo'jaligida faoliyat yurituvchi subyektlardir. Mojaroli vaziyatlar yuzaga kelmasligi uchun barcha manfaatdor tomonlarning fikr va ehtiyojlari o'z vaqtida inobatga olinishi zarur.

Masalan, davlat tartibga soluvchi organ sifatida aksiyadorlik jamiyatining O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga rioya etishini, ichki hujjatlarning umumiy qoidalarga mosligini hamda ularning amaldagi rivojlanishini doimiy monitoring qilish mexanizmini yo'lga qo'yishi lozim. Investor esa aksiyadorlik jamiyatining samaradorlik ko'rsatkichlaridan doimiy xabardor bo'lishi, bu borada ochiq va muntazam axborot almashinuvi tizimlarining mavjud bo'lishi kerak.

Shuningdek, har bir manfaatdor tomon bilan hamkorlikni tashkil etishda ularning manfaatlarini ham hisobga olish lozim. Ayniqsa, aksiyadorlik jamiyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishga qodir shaxslar bilan manfaatlar to'qnashuvining oldini olish maqsadida korporativ o'zaro munosabatlarni tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha mutaxassis tomonidan maxsus hamkorlik yo'riqnomalari ishlab chiqilishi zarur.

Korporativ boshqaruv tizimida korporativ madaniyat o'zaro munosabatlarning eng muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Tadbirkorlik faoliyatida axloqiy normalar tizimini shakllantiruvchi ushbu madaniyat munosabatlar etikasi, sadoqat, ishonch va umumiy maqsadlarga erishish ruhi bilan uyg'unlashgan bo'lishi zarur.

Aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan shakllantirilgan korporativ madaniyat manfaatdor tomonlarning sodiqligini mustahkamlaydi, munosabatlarda ishonchni kuchaytiradi va o'zaro hamkorlikni qo'llab-quvvatlovchi nomoddiy, biroq yuqori samaradorlikka ega strategik vosita sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ponick, E., & Wieczorek, G. (2022). Artificial Intelligence in Governance, Risk and Compliance: Results of a study on potentials for the application of artificial intelligence (AI) in governance, risk and compliance (GRC). arXiv preprint arXiv:2212.03601. <https://arxiv.org/abs/2212.03601>
2. Ivaninskiy, I. (2019). The Impact of the Digital Transformation of Business on Corporate Governance. An Overview of Recent Studies. Journal of Corporate Finance Research, 13(3), 35-47. <https://cfjournal.hse.ru/article/view/10198>
3. Zhou, Y., & Liu, Z. (2022). Digital technology innovation and corporate ESG performance: evidence from China. Economic Change and Restructuring. <https://link.springer.com/article/10.1007/s10644-024-09791-x>
4. Bawa, Z., & Rathore, K. S. (2024). Corporate Governance in the Era of Digital Transformation: Evaluating the Impact of Emerging Technologies on Organizational Strategies. Business, Marketing, and Finance Open, 1(5), 46-63. <https://www.bmfopen.com/index.php/bmfopen/article/view/28>; Wu, T. (2024). Exploring of the Integration of Emerging Tech-



- nologies and Corporate Governance. *Advances in Economics, Management and Political Sciences*, 87, 90-96. <https://www.ewadirect.com/proceedings/aemps/article/view/13013>
5. Sun, Y., & Guo, J. (2024). How does digital transformation affect corporate governance paradigms? A synthesis of the literature. *Systems*, 7(2). <https://systems.enpress-publisher.com/index.php/FSJ/article/view/8081/4425>
 6. https://goingdigital.oecd.org/data/notes/no10_toolkitnote_suptechcorp.gov.pdf
 7. <https://jcli-bi.org/index.php/jcli/article/view/257>
 8. <https://br-ag.eu/2024/07/11/financial-supervisors-enhance-oversight-use-of-data-and-analytics-with-suptech>.
 9. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2405844024074905>.
 10. D.Kh. Suyunov, A.T.Kenjabaev Scientific Approaches to The Analysis of the Experience of Foreign Countries on the Development of Entrepreneurship in The Service Field. *Wire Insights: Journal of Innovation Insights* 1 (5), 1-7. 2023.
 11. Д.Х.Суюнов Ўзбекистоннинг халқаро рейтинг ва индекслардаги ўрнини яхшилаш ҳамда давлат органлари ва ташкилотларида улар билан тизимли ишлаш механизмлари. *Science and innovation* 2 (Special Issue 13), 486-488.2023.
 12. D.X. Suyunov Theoretical principles of improving the modern corporate control system in joint stock companies *International journal of economic perspectives*. 16 (11), 90-97.2022.
 13. D.X. Suyunov, S.E. Elmirzayev *Korporativ boshqaruv*. Дарслик–Toshkent 2022.450 бет.
 14. D.X. Suyunov Ways of its Development in Uzbekistan, *BPG Economy Genius Repository* 24, 7-15.2023.
 15. Суюнова Д.Д. Ракамли корпоратив бошқарувни жорий этишнинг илғор хориж ривожланган мамлакатлар тажрибаси ва ижобий томонларини жорий қилиш. *European science international conference: analysis of modern science and innovation*. <https://esiconf.org/index.php/AMSI/article/view/2552/2376>.2025, февраль.
 16. Суюнова Д.Д. Ракамли иктисодиёт тизими иктисодиётни ривожланишининг электрон механизми. *European science international conference: analysis of modern science and innovation*. <https://esiconf.org/index.php/AMSI/article/view/2559/2375>.2025, февраль.
 17. Д.Х. Суюнов, Б.А. Холбаев Лойиҳа бошқаруви: услуб ва стандартлар. Ўқув қўлланма. 2018 йил. 195 бет.
 18. 19. Суюнов,Д.Х. Холбаев,Б.А. Методы и стандарты управления проектами. учебное.2018 год. 210 стр.
 19. 20. D.X. Suyunov, S.E. Elmirzayev *Korporativ boshqaruv*. Дарслик–Toshkent 2022.450 бет.
 20. 21. Б.Ф.Ганиходжаев, Д.Х.Суюнов, Ш.Хусаинов. Пособие по корпоративному управлению. Ташкент–адабиёт учкунлари 2017.
 21. 22. D.X.Suyunov, A.T.Kenjabayev, A.Ro'ziyev *Elektron tijorat*. 2023.450 bet.
 22. 23. D.D. Suvanova Digitalize enterprise business processes methodological approach. *Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research*. Volume 1, Issue 9, December, 2023 ISSN (E): 2938-3811.
 23. 24. D.D. Suvanova The digitalization of business processes itself scientific approaches to the characteristics. *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*. Volume: 19 December 2023.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Ei.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>